



## **“ATROF-MUHIT VA OROL BO‘YI AHOLISINING SALOMATLIGI”**

### **XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

Nukus shahri, 2025-yil 24-25 oktyabr

### **AXBOROT XATI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**QORAQALPOG‘ISTON TIBBIYOT INSTITUTINING  
AXBOROT XATI**

**“Atrof-muhit va Orol bo‘yi aholisning salomatligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-  
amaliy konferensiya**

**2025-yil 24-25 oktabr**

**HURMATLI KONFERENSIYA QATNASHCHILARI!**

Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti ma’muriyati **“Atrof-muhit va Orol bo‘yi aholisining salomatligi”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishini ma’lum qiladi.

**Konferensiyaning asosiy maqsadi** — “Atrof-muhit va Orolbo‘yi xalqining salomatligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy maqsadi — Orolbo‘yi mintaqasida ekologik inqiroz oqibatida yuzaga kelayotgan sog‘liq muammolarini chuqur ilmiy tahlil qilish, atrof-muhitning inson salomatligiga ta’sirini aniqlash, mavjud muammolarga zamonaviy tibbiy, ekologik va innovatsion yondashuvlar asosida yechimlar topish, sohaga oid ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

**Konferensiya doirasida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:**

1. *Hududdagi havo, suv va tuproq ifloslanishining inson salomatligiga ta’sirini aniqlovchi ilmiy-tadqiqot natijalarini jamlash, baholash va ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.*

2. *Mintaqaviy sog‘liqni saqlash tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va aholi salomatligini yaxshilash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.*

3. *Ayollar va bolalarda uchraydigan ekologik omilga bog‘liq sog‘liq muammolarini aniqlash, profilaktik choralarni belgilash va reproduktiv salomatlikni mustahkamlash bo‘yicha takliflar berish.*

4. *Orolbo‘yi mintaqasidagi iqlim o‘zgarishlari fonida yuzaga kelayotgan sog‘liqqa oid xavflarni aniqlash va unga qarshi moslashuv strategiyalarini ishlab chiqish.*

5. *Ekologik ta’limni rivojlantirish, yoshlar orasida ekologik ongni oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan zamonaviy metod va texnologiyalarni targ‘ib qilish.*

6. *Atrof-muhit omillarining yurak-qon tomir kasalliklari bilan bog'liqligini aniqlash, xavf omillarini kamaytirish va profilaktika bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.*

### **Konferensiyaning asosiy yo'nalishlari:**

1. *Atrof-muhit ifloslanishi va uning sog'liqqa ta'siri*
2. *Orolbo'yi mintaqasida sog'liqni saqlashda muammolar va yechimlar*
3. *Ona va bola salomatligiga ekologik omillar ta'siri*
4. *Iqlim o'zgarishi va inson salomatligi*
5. *Yashil texnologiyalar va ekologik ta'lim orqali sog'lom avlodni shakllantirish*
6. *Ekologik omillarning yurak-qon tomir tizimiga ta'siri*

### **Konferensiya materiallariga qo'yiladigan talablar**

Maqola va tezisda ko'tarilgan muammolarning mazmuni, tadqiqot uslubining tavsifi, muallif tomonidan olingan natijalar, ma'lumotlar hamda xulosalar qisqa va aniq bo'lishi kerak.

#### **Tezis:**

- ❖ Tezis matnlari A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega bo'lishi kerak;
- ❖ Tezis matni Word matn muharririda, Times New Roman shrift, 12 o'lcham, 1,15 intervalda va 1-2 betdan iborat bo'lishi lozim.

#### **Maqola:**

- ❖ Annotatsiya va kalit so'zlar ko'rsatib o'tilishi lozim (uch tilda)
- ❖ Maqola matnlari A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga ega bo'lishi kerak;
- ❖ Tezis matni Word matn muharririda, Times New Roman shrift, 12 o'lcham, 1,15 intervalda va 4-8 betdan iborat bo'lishi lozim.

#### **Nashr materiallari strukturasi:**

- ❖ Sarlavha (katta harflar bilan);
- ❖ Mualliflarning to'liq ismi, sharifi;
- ❖ Tashkilot nomi, shahar, mamlakat;
- ❖ Ishning maqsadi;
- ❖ Materiallar va usullar;
- ❖ Natijalar va ularning muhokamasi;
- ❖ Xulosalar;
- ❖ Foydalanilgan adabiyotlar.

Tezis va maqolalar qoraqalpoq, o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi. Elektron shaklda fayl nomiga birinchi muallifning familiyasi beriladi masalan, **Axmetov.docx**. ko'rinishida taqdim qilinishi lozim.

**Izoh:** Keltirilgan ilmiy ishlardagi grammatik va stilistik xatoliklar, shuningdek, ish mazmuni uchun shaxsan mualliflar mas'ul hisoblanadi.

### **Maqola va tezislarni qabul qilish muddati – 2025-yil 10 oktabrgacha**

Konferensiyada ishtirok etish uchun maqola va tezislarni 2025 yil 10 oktabrga qadar **nukusmed@gmail.uz** elektron pochta manzili orqali qabul qilinadi.



Har bir tezis uchun 100 000 so'm, maqola uchun 150 000 so'm miqdorida ishtirokchilardan to'lov qilish talab qilinadi. To'lovga ishtirokchilar hujjatlarini rasmiylashtirish, konferensiyaning ilmiy dasturida ishtirok etish, xalqaro konferensiya materiallarini qabul qilish, tashkiliy va nashriyot xarajatlari kiradi. Faqat xorijiy mualliflar ishtirok etgan maqola va tezislarda bepul chop etiladi.

Mualliflardan ta'lim dargohining to'lov rekvizitlariga to'lov qilish talab qilinadi. To'lovdan keyin chekni yuborishingizni so'raymiz.

**Aloqa uchun:**

Tezis va maqolalarni, ma'ruza va taqdimot bilan qatnashish uchun arizalar qabul qilish uchun Tleubergenova Azima Baltabayevnaga quyidagi telefon orqali murojaat qilishingiz mumkin: +998 97 355 19 72

Tashkiliy masalalar bo'yicha Madiyarova Gulbaxar Nukusbayevnaga quyidagi telefon orqali murojaat qilishingiz mumkin: +998 88 084 73 72

**To'lov uchun ma'lumotlar:**

**Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti**

**Manzili: Nukus sh. A.Dosnazarov, 108 uy**

**Tel/faks: (61)222-84-36**

**shh/r: 400910860354017094100054001**

**INN: 202601843**

**Moliya Vazirligi Gaznachiligi**

**x/r: 23402000300100001010**

**Bank: Markaziy bank Nukus sh. bosh boshqarmasi XKKM**

**MFO: 00014 INN: 201122919**

Tashkiliy qo‘mita konferensiyada ishtirokchini ro‘yxatdan o‘tkazish shaklini to‘ldirishingizni va bizga yuborishingizni so‘raydi.

Ilmiy-amaliy konferensiya  
ishtirokchilarini ro‘yxatga olish shakli

|                                                                 |  |
|-----------------------------------------------------------------|--|
| Muallif (lar) ning familiyasi, ismi, otasining ismi             |  |
| Ish joyi                                                        |  |
| Lavozimi                                                        |  |
| Ilmiy daraja                                                    |  |
| Maqola (tezis) mavzusi                                          |  |
| Shu‘ba tartib raqami                                            |  |
| Muallifning e-mail i                                            |  |
| Muallifning telefon raqami                                      |  |
| Konferentsiyadagi ishtirokingiz quyidagilarni o‘z ichiga oladi: |  |
| - ma’ruza shaklida taqdimot                                     |  |
| - maqolani nashr etish                                          |  |
| - tezlarni nashr etish                                          |  |

**Eslatma:** Jurnalning elektron versiyasini Qoraqalpog‘iston tibbiyot institutining rasmiy [www.kkmi.uz](http://www.kkmi.uz) saytidan yuklab olish mumkin.